

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SHE'RIY MATNLARNI O'RGATISH USULLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8059678>

Norbekovava Sitora

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti talabasi

email: norbekovavator@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili va o'qish savodxonligi darsidan ayrim saboqlarni berish jarayoni keltirilgan. She'r mazmuni va g'oyasini aniqlash, narsa nomlarini ajrata olish va mavzu doirasida o'quvchilarning so'z boyligini o'stirishdan iborat.

Kalit so'zlar

Kelajak, ta'lim, savod, she'r, maqol, ma'no-mazmun, boshlang'ich saboq.

Vatanimizning ertangi kuni yanada farovon va go'zal bo'lishi uchun o'sib kelayotgan yosh avlodni shunga munosib ta'lim-tarbiya qilmoq darkor. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev o'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida shunday deydi: "Bugun har bir o'qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta'lim va ilm-fan sohasidagi eng so'nggi ijobiy yangiliklarni o'quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir sòz bilan aytganda, zamonaviy va jamiyatimizning eng so'nggi ilg'or vakillari bo'lishi kerak." Ushbu nutq orqali yoshlarning ilmli bo'lishiga qanchalik e'tibor qaratilyotganiga yana bir bor amin bo'lishimiz mumkin. O'quvchilarning yetarlicha bilim olishlari uchun qulay shart-sharoit bo'lishi va mukammal o'qitish tizimi ishlab chiqilishi asosiy vosita sanaladi.

Binoni qurishda uning poydevori mustahkam bo'lishi qanchalik muhim bo'lsa, ta'lim tizimida ham boshlang'ich ta'lim jarayoni shunchalik ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarni bilim olishga qiziqtirish, ularga butun umri davomida zarur bo'ladigan boshlang'ich saboqlarni berish ham 1-4-sinflarda amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarda o'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlash va grammatik savodxonliklarini shakllantirish sanaladi. Endilikda ushbu maqsadlarni birgalikda olib borish uchun ona tili va o'qish darslari yagona fan sifatida, dars soatlari qisqartirilmagan holatda olib borilmoqda. O'qish fani faqat matn va she'lardan iborat edi, yangi darslik esa matn va she'rlar bilan bir qatorda bolalarni ijtimoiy hayotga moslashib ketishiga

ko'maklashadigan qiziqarli rasmlar, topshiriqlar va tinglab tushunishga moslashtirilgan audio matnlarni ham mujassam etadi. Ona tili va o'qish savodxonligi darsligi o'quvchilarni o'qish va yozish malakalarini rivojlantirish bilan birgalikda darslikda o'rganilgan mavzuni analiz-sintez qilishni, shu to'g'risida fikr-mulohaza yuritishni o'rgatadi. Bunga misol qilib ona tili va o'qish savodxonligi darsligidagi bir nechta she'rlarni ko'rib o'tamiz. Qambar ota qalamiga mansub "Soat" she'ri bolalarni vaqtni qadrlashga, o'tib borayotgan fursatdan unumli foydalanishga undovchi she'r sanaladi.

Har bir kunni bo'lib-bo'lib,
Yigirma to'rt soat qilib,
Rejasini tuzil olgan,
Hisobini chizib olgan.

She'r avvalida bolalarga bir kun 24 soatdan iborat ekanligi va har bir kunning rejasini kishilar oldindan rejalashtirib qo'yish lozimligi ta'kidlanmoqda.

U der: "Vaqt asl-qimmat,
Vaqt - umr, vaqt - hayot".
Yugurganday baxt izidan,
Yuguramiz vaqt izidan.

Dunyoda oltindan qadrli, javhardan qimmatli bir narsa bor, u ham bo'lsa vaqtdir. Vaqt bizning har turli ishni qilishga kuchimiz yetadigan fursatdir. Vaqt qadrini bilgan inson o'zida baxtni his qila oladi.

Kim mehnatni sevsa chindan,
Vaqt qochmaydi aslo undan.
Ishimizga doim shaymiz,
Vaqtni yuvosh jilovlaymiz.

Har kim vaqtni o'z bilganicha sarflaydi. Kimdir ilm-fan bilan yana kimdir esa sport ishlari bilan mashg'ul bo'ladi. Nimaiki qilsa ham vaqtni foydali ishlarga, mehnatga bag'ishlagan inson barcha o'ylagan orzu-maqсадlariga yetishadi. Vaqtni o'zi uchun kerakli amallarga taqsimlay olgan kishining ishida rivoj, baraka va unum bo'ladi.

Chiqmaydi u izimizdan,
Biz ham shodmiz, u shod bizdan.
Qadrlaymiz vaqtimizni,
Vaqtdan topdik baxtimizni.

Vaqt go'yoki chopqir ot singari. Uni to'g'ri jilovlay olsak, u bizni ko'zlagan manzilimizga oson yetkazadi. Aks holda, o'z manziliga yetolmay qolgan yo'lovchi

kabi sarson-u sargardon bo'lish hech gap emas. She'r orqali bolalarga vaqt - baxt kaliti ekanligi, bu kalitni yo'qotmaslik lozimligi, inson vaqtdan unumli foydalana olgandagina chinakam baxt egasi bo'lishi uqtirilmogda. O'qituvchi bor mahoratini ishga solgan holda she'rdagi ma'noni, badiiy ifodani o'quvchilarga go'zal tarzda yetkazib berishi lozim. She'rga ona tili nuqtayi nazaridan qarasak, she'rdagi unli va undoshlar talaffuziga e'tibor qaratilishi, o'quvchilar bilan birgalikda qo'sh undoshli so'zlar va ularning ma'nosi haqida mulohaza yuritilishi lozim. "Qimmat" so'zi she'rdagi yagona qo'sh undoshli so'z sanaladi. Qo'sh undoshlikni hosil qilayotgan ikkita jarangli "m" harfi so'zda aniq talaffuz qilinadi. Qimmat so'zi narxi baland ma'nosini ifodalab, insonlar uchun qadrli narsalarga ham nisbatan ishlatiladi.

Vaqt mavzusiga doir maqolalar bilan yanada darsni mustahkamlaymiz.

"Vaqt tog'ni yemirar, suv toshni kemirar" . Ushbu maqolda vaqt tinmay o'taverishi, hech narsa abadiy emasligi, yillar o'tishi bilan hatto tog'lar yemirilishi va tig'siz, jonsiz bo'lgan suv toshlarni-da kemira olishi haqida aytilmogda. " Yoqut bilan vaqt topilmas, vaqt bilan yoqut topilar" maqolida vaqt pulga sotib olib bo'lmaydigan ne'matlar qatoridan ekanligi, vaqtdan foydalanib esa qolgan barcha narsalarga erishish mumkinligi aytilmogda. Haqiqatan ham, vaqtida o'qib yoki hunar o'rganib, o'z yo'lini topgan inson istagan barcha narsasiga peshona teri bilan muyassar bo'lishi mumkin. " Uch kun barvaqt turgan bir kun yutar". G'afolat bosib kun qiyomga kelgan vaqtda uyg'onadigan kishi, uch kun o'z odatidan kechib vaqtli uyg'onasa, bir kunni yutgan bo'lar ekan. Ertalab tetik holda bajarilgan ishda samara va baraka xuddi kutilgandek bo'ladi. Bu esa insonga yanada ruh bag'ishlaydi.

Dilshod Rajab qalamiga mansub "Harflarga hazil(lashma)" she'ri qiziqarli va bolalarni o'ziga jalb qiladigan she'r sanaladi.

"Nina" ga "chi" ni qo'shdim, uchib ketdi pirillab.

"Kit" dan "k" ni oluvdim, jahl qildi irillab.

"Tosh" in tashlab toshbaqa, tilga kirdi "qur" illab.

"Bo'r" bilan "i" ni yozdim, qoching endi zirillab.

Hayvon va hasharot nomlari orasidagi o'zaro farqni ko'rsatib, ajoyib bog'lanishlar asosiga qurilgan ushbu she'r, bir tarafdin bolalarni fikrlashga majbur qilsa, boshqa tarafdin beixtiyor yuzlariga tabassum yugurishiga sababchi bo'ladi. Nina uy ro'zg'or buyumi, tikish uchun asqotadi. "Chi" so'z yasovchisini qo'shganda "ninachi" hosil bo'lyapti va uning harakati, qanotini "pirillatib" uchishi keltirilgan. Kit bu baliqlar bilan oziqlanadigan yirtqich suv hayvoni. So'z boshidagi "k" tovushi olinsa, uyimiz qo'riqchisi va vafodor do'stimiz bo'lgan itga aylanyapti. Uyga yaqinlashgan begona odamni ko'rganda irillashi turgan gap, albatta. Shoir ushbu

hodisani she'rdagi mohirona aks ettiradi. Toshbaqa butun umrini o'z kosasi ichida o'tkazadi. Toshni tashlab qochsa baqaga aylanish holati keltirilyapti. Toshni tashlab qochish bu majoziy ma'noda o'xshatish. Aslida esa "tosh" so'zini tushirib qoldirilsa baqa so'zi hosil bo'lish holati ko'rsatilyapti. Bo'r bilan "i" ni yozish natijasida "bo'ri" hosil bo'lyapti. U ham yirtqich hayvon ekanligi barchaga ma'lum. She'rdagi g'ayritabiiy bog'lanishlar kitobxonni she'rni sinchkovlik bilan o'qishga va undagi samimiy mutoyibadan zavqlanishga xizmat qiladi. O'qituvchi she'rdagi so'zlarning yasallishini yozuv taxtasiga yozgan holda tushuntirib bersa she'rni anglash bolalar uchun yanada osonlashadi.

Endigina maktab ostonasiga qadam qo'ygan jajji bolajonlarga ilk saboqlarni berish anchayin murakkab jarayondir. Pedagoglar o'sha ma'suliyatli vazifani ado eta olishlari lozim. O'z ustida ishlash, yangi o'qitish uslublarini darsida qo'llash va o'quvchilarni bilim olishdek ma'suliyatli jarayonga qiziqishlarini uyg'otish boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining burchi sanaladi. Qaysi yo'l yoki usuldan foydalanilsa ham birdan bir asosiy maqsad ertangi kunimiz egalarini ona Vatanimizga munosib farzand etib ta'lim- tarbiya etmoqlikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent - "O'zbekiston" - 2016.56 b
2. G'ulomova X, Yo'ldosheva Sh, Mamatova G, Boqiyeva H. Husnixat va uni o'qitish metodikasi -T.: TDPU, 2009.
3. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursunov Sh. 2- sinf Ona tili va o'qish savodxonligi darsligi (1-2-qismlar) T.: Respublika ta'lim markazi.